Omonova Nilufar Omon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'lim samaradorligini oshirishda gamifikatsiya elementlaridan foydalanishning o'rni	694
Ovxunov Iqboljon Abdunabiyeovich, Qodirova Sarvinoz Bahodir qizi	
Tikuv texnologiyalari asosida o'quvchilarning amaliy topshiriqlar bajarish ko'nikmalarini rivojlantirish	698
Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna	
Bo'lajak muhandislarning xorijiy til bilish ko'nikmalarini rivojlantirishda individual va differensial yondashuvlar uyg'unligi	702
Qurbonova Nafisa Saidjonovna	
Tárbiya párin oqítw arqalı oqíwshlardín kreativ qábiletin rawajlandırıw.....	706
Reymova Gulaim	
Mirishkor toponimlarining leksik-semantik xususiyatlari	710
Ro'ziyeva Hilola Fayzulla qizi	
Taekvondochilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish metodikasi	714
Saydaxmadov A'zamxon Valixonovich, Qosimova Nargizaxon Rustamxon qizi	
The Role of Music in Human Spiritual Development and Educational Significance.....	717
Shokirkhonov Bakhtiyorxon Botirkhonovich	
Boshlang'ich ta'limda tabiatga ongli munosabatni shakllantirishning nazariy metodologik asoslari.....	722
Sayfedinova Dildora Ikramiddinova	
Gematologik-onkologik kasalliklarga chalingan o'quvchilar uchun gosptal maktablarida ta'lim jarayonini tashkil etish	726
Isamuxamedova Dildora Raxmatillayevna, Qayumova Sabrina To'liqin qizi	
Neologizmlar – badiiy matnda uslubiy vosita sifatida	730
Ibragimova Shoira Normuminovna	
Optimisation of Technical and Physical Potential in the Implementation of the Rotational Method of Pushing the Core.....	733
Tajimbetov Anvar Tengelbayevich	
Magistrlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish – kasbiy faoliyatda o'z-o'zini shakllantirish omili sifatida.....	736
Turmatov Jaloliddin Raxmatullayevich	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish modeli	743
Usmonova Kamola Erkinovna	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining ijtimoiy lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	749
X. A. Suyunova	
Tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda autentik materiallarning o'rni	752
Xudoyberdiyeva Zumrat Xudayberdiyevna	
Motivatsiya – inson faoliyatini harakatga keltiruvchi psixologik omil sifatida	756
Yo'ldoshev Javlon Ablanazar o'g'li	

Цифровые технологии и искусственный интеллект в обучении иностранным языкам: теоретико-методологический анализ	760
<i>Абидова М. И., Абидова Д. М.</i>	
Сюжетно-ролевая игра как способ психоэмоционального развития детей дошкольного возраста, находящихся на длительном лечении	764
<i>Амитова Майисия Рахмателлаевна</i>	
Эффективные приемы презентации лексики на уроках иностранного языка	767
<i>Гилязиева Насиба Михайловна</i>	
Речевые действия в методике формирования коммуникативной компетенции при обучении РКИ ...	770
<i>Ислямова Сония Юнусовна</i>	
Трансформация ценностей, связанных с физической активностью, у представителей разных поколений: результаты современных исследований	779
<i>У. Ш. Салимов</i>	
Innovatsiyalar va an'analar integratsiyasi asosida talabalarni ma'naviy ruhda tarbiyalashni takomillashtirish	784
<i>Usmonova Dilafruz Umirzoqovna</i>	
Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash samaradorligi	788
<i>Sharipov Ulug'bek Ibotovich</i>	
Texnologiya fanida raqamli ta'lim resurslari asosida amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish metodikasi	792
<i>X. Ch. Dusyorov, X. A. Qulmamatova, N. O. Shog'darov</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlarining strategik boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirish tendensiyalari	796
<i>Itolmazova Gulzoda Qurbongeldiyevna</i>	
Sinfdan tashqari ishlar orqali boshlang'ich ta'lim o'quv jarayoniga sun'iy intellektni tatbiq etish metodikasi	800
<i>Nigmatullayeva Matluba Izatullo qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axborotga oid ko'nikmalarni shakllantirishda didaktik o'yinlarning roli	805
<i>Shononova Gulsanam Shavkat qizi</i>	
Masofaviy ta'lim sharoitida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etish tajribasi	810
<i>Shukurov Mirshod Karim o'g'li, Sharipov Bahrom Bo'riyevich</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida innovatsion metodlarning sifatli ta'limdagi o'rni	816
<i>Jabbarova Zuhra Omondullayevna</i>	
Zamonaviy yondashuvlar asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish	819
<i>Bozozrova Adiba Xudayarovna</i>	
Ta'lim muassasalarida psixologik xizmatni olib borishda psixodiagnostik faoliyatning o'rni	823
<i>Odamova O'g'iljon Kenjayevna</i>	
Pedagogical and Psychological Possibilities of Technological Education in Developing Constructive Thinking in Early School Age	827
<i>Egamova Anbarjon Atanazarovna</i>	
Shaxsda empatiya shakllanishining yosh davrlar bo'yicha psixologik xususiyatlari	832
<i>Kurbanova Zaynab Jurakulovna</i>	
Voleybolchilarning tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari	836
<i>Mustafayev Yoqubjon Xayrullayevich, Samatova Maftuna Sohib qizi</i>	
Oliygo'h talabalari o'rtasida basketbol sporti mashg'ulotlari orqali jismoniy sifatlarini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari	840
<i>Mustafayev Yoqubjon Xayrullayevich, Husenova Norjona Umid qizi</i>	
Inson shaxsini shakllantirishda jamiyat tarbiyasining ahamiyati	844
<i>Normurodova Munisa Nuriddin qizi</i>	
Ikki tilli nutqda kod almashtirish hodisasining lingvistik, pragmatik va ijtimoiy funksiyalari	847
<i>Nurmamatova Zarifa Abdiraup qizi</i>	
Yosh kurashchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini shakllantirish metodikasi	850
<i>Nurullayev Abdixoliq Qaxxorovich</i>	



Jismoniy tarbiya murabbiylarining faoliyatini sport klublarida tashkil qilishning integrativ mexanizmlari didaktik-metodik yondashuvlar	853
O'rinov Oblaqul Jumayevich	
O'quvchilarning ta'lim olish jarayoniga zamonaviy o'qitish usullarining ta'siri	857
Ochilova Sarvinoz Bozor qizi	
Talabalarga Regbi-7 sport o'yinida himoya va hujum usullari hamda texnologiyalarini takomillashtirish	860
Ramazonova Gulmira G'olib qizi	
Oliy ta'limda siyosiy tafakkurni shakllantirishda sun'iy intellektning pedagogik modeli: nazariya va amaliyot uyg'unligi.....	863
Rasulev Bobirjon Atxamovich	
Boshlang'ich sinflar ta'lim tizimida kommunikativ ta'lim harakatlarini shakllantirishning tashkiliy-pedagogik shartlari	867
Shoira Rahimova Adilbekovna	
Raqamli texnologiyalar asosida talabalarning o'quv faoliyatini integrativ mexanizmlar orqali tashkil qilish va rivojlantirish.....	871
Sirojov Otajon Orifjonovich	
Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini mediata'lim resurslari vositasida rivojlantirish metodikasi	875
Suleymanova Ra'no Dustbekovna, Bekova Nilufar Aliboy qizi	
Nemis tilidan o'zbek tiliga tarjimada yuzaga keladigan lingvistik va kommunikativ qiyinchiliklar.....	881
Turamurodova Sevinch Anvarovna	
Globalashuv jarayonida ma'naviy-mafkuraviy mexanizmlarning estetik madaniyatda ifodalanishi	884
Xudayberdiyeva Xuriyat Karimberdiyevna	



BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI MEDIATA'LIM RESURSLARI VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Suleymanova Ra'no Dustbekovna

Guliston davlat universiteti fakultetlararo pedagogika kafedrası katta
o'qituvchisi

Bekova Nilufar Aliboy qizi

Amaliy psixologiya sirtqi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini mediata'lim resurslari yordamida rivojlantirish metodikasi ko'rib chiqiladi. Mediata'lim resurslari o'qituvchilarga ta'lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli tashkil etish imkonini beruvchi interaktiv materiallar, video darslar hamda onlayn platformalarni o'z ichiga oladi. Maqolada mediata'lim resurslarining o'qituvchilarni tayyorlash jarayonidagi roli, ularning pedagogik ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati hamda zamonaviy ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarni qo'llash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, mediata'lim resurslarining o'qituvchilarda kreativ fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni ham muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: pedagogik mahorat, psixologiya, mediata'lim, innovatsiya, ta'lim, tarbiya, imkoniyatlar, kreativlik, qobiliyat, pedagog.

Abstract: This article examines the methodology for developing the pedagogical competence of future teachers through the use of media education resources. Media education resources include interactive materials, video lessons, and online platforms that enable teachers to organize the educational process in a more effective and engaging manner. The article analyzes the role of media education resources in teacher training, their significance in enhancing pedagogical competence, and the potential for implementing innovative approaches within the modern education system. It also discusses the contribution of media education resources to the development of teachers' creative thinking and problem-solving skills.

Key words: pedagogical competence, psychology, media education, innovation, education, upbringing, opportunities, creativity, ability, teacher.

Аннотация: В данной статье рассматривается методика развития педагогического мастерства будущих учителей с использованием ресурсов медиаобразования. Ресурсы медиаобразования включают интерактивные материалы, видеоуроки и онлайн-платформы, позволяющие сделать образовательный процесс более эффективным и интересным. В статье анализируется роль ресурсов медиаобразования в процессе подготовки учителей, их значение в совершенствовании педагогических навыков, а также возможности применения инновационных подходов в современной системе образования. Также рассматривается значение ресурсов медиаобразования в развитии у учителей творческого мышления и навыков решения проблем.

Ключевые слова: педагогическое мастерство, психология, медиаобразование, инновации, образование, воспитание, возможности, креативность, способности, учитель.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" nomli kitobida ta'kidlanganidek, taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz shart va zarur. Bu bizga rivojlanishning eng qisqa yo'lidan borish imkonini beradi. Chunki intellektual va madaniy salohiyatning qanday noyob boylik ekanini, nodir iste'dod egalarini tarbiyalab kamolga yetkazishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutishga haqqimiz yo'q ^[1], degan fikrlar tahsinga sazovordir. Bo'lajak o'qituvchilarda hosil bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va amaliy faoliyat tajribasining pedagogik mahorat



bilan uyg'unlashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik mahoratni rivojlantirish texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash ularning faolligi, tashabbuskorligi, muammoning yechimi to'g'risida mustaqil qarashlar bilan javob bera olishi, pedagogik-psixologik sifatlarining shakllanishi hamda mashg'ulot olib borish jarayonida interfaol metodlar va pedagogik texnologiyalarning to'g'ri tanlanishi bilan chambarchas bog'liq.

O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida bo'lajak o'qituvchilarning rivojlanish modelini ishlab chiqishda talaba shaxsiga ta'sir etuvchi omillarni inobatga olish, interfaol ta'lim metodlaridan foydalanib mashg'ulotlarni tashkil etish maqsadga muvofiq ekani qayd etilgan. Interfaol ("inter" – o'zaro, "act" – harakat qilmoq) atamasi o'zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo'lishni anglatadi [3].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'qitishning interfaol metodlari bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning yangicha shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga faol jalb qilinadilar, ular o'zlari bilgan va o'ylayotgan fikrlarni tushunish, tahlil qilish hamda ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladilar. M.G. Sergeeva tomonidan bildirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda, biz o'z tadqiqotimizda bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirishning asosiy omili sifatida "Umumiy pedagogika va psixologiya" fani orqali ta'lim-tarbiya jarayonini muammoli ta'lim texnologiyalari va interfaol metodlar asosida tashkil etishni [2] taklif etamiz.

Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini mediata'lim resurslari asosida rivojlantirish jarayonida ularning metodik tayyorgarligini takomillashtirish uchun mos ta'lim shakllari, metodlari va vositalaridan samarali foydalanish talab etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ishning nazariy va amaliy asoslarini belgilab, bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini mediata'lim resurslari vositasida rivojlantirish jarayonini ilmiy jihatdan asoslashga qaratildi. Tadqiqot tizimli, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga yo'naltirilgan hamda kompetensiyaviy yondashuvlar integratsiyasiga tayangan holda olib borildi. Metodologik asos sifatida mediata'lim konsepsiyasi, pedagogik innovatsiyalar nazariyasi, kasbiy kompetensiyani shakllantirish tamoyillari hamda ta'lim jarayonini raqamlashtirishga oid ilmiy qarashlar qabul qilindi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik metodlar uyg'unligi ta'minlandi, jumladan, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy va tizimli o'rganish, umumlashtirish, kuzatish, so'rovnoma, suhbat, diagnostik testlar hamda tajriba-sinov ishlari qo'llanildi.

Tajriba-sinov bosqichida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirishga qaratilgan metodik model ishlab chiqildi va mediata'lim resurslari, ya'ni interaktiv taqdimotlar, video darslar, onlayn platformalar va raqamli didaktik materiallar asosida o'quv jarayoni tashkil etildi. Shuningdek, muammoli ta'lim texnologiyalari, interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish va reflektiv tahlil usullaridan kompleks foydalanildi.

Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi: dastlabki diagnostika bosqichida ishtirokchilarning pedagogik mahorat darajasi aniqlanib, shakllantiruvchi bosqichda mediata'lim resurslari asosida metodik ta'sir ko'rsatildi hamda yakuniy nazorat bosqichida natijalar qiyosiy tahlil qilindi. Baholash mezonlari sifatida pedagogik kompetensiya, kommunikativ madaniyat, kreativ fikrlash, axborot-kommunikatsion savodxonlik va reflektiv ko'nikmalar darajasi belgilandi. Olingan natijalar mediata'lim resurslaridan maqsadli va tizimli foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini samarali rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Quyida "Pedagogik mahorat asoslari" mavzusi bo'yicha aralash o'qitish (skarabey, bumerang, muammoli ta'lim) metodlaridan foydalangan holda mashg'ulotni tashkil etish metodikasi keltiriladi. Mavzu: "Pedagogik mahorat asoslari". Mashg'ulotning maqsadi quyidagilardan iborat: a) ta'limiy: talabalarga pedagogik mahorat haqida kengroq tushuncha berish; pedagogik mahoratni yanada mazmunli va tizimli ravishda o'rgatishga erishish; tajribali ustozlarning ish tajribasini o'rgatish; b) tarbiyaviy: talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirish; v) rivojlantiruvchi: mavzu haqidagi bilimlarini kengaytirish, ko'nikma va malakalarini shakllantirish. Mashg'ulot turi: nazariy. Mashg'ulotda qo'llaniladigan metodlar: aqliy hujum, skarabey, bumerang, muammoli ta'lim. Mashg'ulotning jihozlanishi: ma'ruza materiallari; taqdimot, internet tarmog'i, videorolik, testlar, audio darslik, darsliklar, o'quv, metodik va badiiy adabiyotlar; o'zini o'zi baholash mezonlari ifodalangan kartochkalar. Mashg'ulotda kutilayotgan natijalar: pedagogik mahorat tushunchasiga ta'rif beriladi; pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari kengroq ochib beriladi; hayotiy misollar bilan tushuntirishga harakat qilinadi. Mashg'ulotning borishi tashkiliy qismdan boshlanadi.

Yangi mashg'ulotni tashkil etish uchun o'qituvchi mashg'ulot davomida talabalarga beriladigan savollarni, mavzuga oid videofilm va zarur jihozlarni, shuningdek, o'zini o'zi baholash mezonlari ifodalangan kartochkalarni



oldindan tayyorlab qo'yishi lozim. Mashg'ulot mazmuni mavzuni yoritish bo'yicha taklif etiladigan ma'lumotlar tizimini o'z ichiga oladi. Mavzu doirasida quyidagi savollar asosida "Skarabey" metodi yordamida talabalar jamoasining fikri o'rganiladi: 1-savol: Kimni biz pedagog deb ataymiz? 2-savol: Haqiqiy pedagog deb qanday pedagoglarni aytishimiz mumkin? 3-savol: Sizningcha, haqiqiy pedagog qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerak?





1-rasm: Haqiqiy pedagog qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerak?

Yuqoridagi savollarga javob olingach, o'qituvchi multimedia texnologiyasi yordamida mavzuga oid filmni namoyish qilish orqali mavzuni mustahkamlaydi.



2-rasm: Inson hayotida ta'limning o'rni (animatsion videorolik)



3-rasm: Pedagogik mahorat komponentlari

1-topshiriq

O'quv jarayonini amalga oshirishda taqdim etilayotgan materiallarni bo'lajak o'qituvchilar tomonidan yakka va guruh holda o'zlashtirishlari hamda suhbat-munozara va turli savollar orqali tarqatma materiallardagi matnlar va boshqalarni o'zlashtirish darajalarini nazorat qilish va baholash bilan birgalikda o'rganilayotgan mavzu bo'yicha talabalarning mavjud bilim va ko'nikmalarini faollashtirishga imkon beradigan holatlarni uyg'otish o'quv mashg'ulotning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bumerang metodidan foydalanib mashg'ulotning keyingi bosqichida o'qituvchi guruhni to'rttaga ajratib topshiriq beradi:



1-jadval: Bumerang metodidan foydalanib mashg'ulot

1-guruhga O'qitish jarayonining samaradorligi kimga bog'liq? Nima uchun?	2-guruhga Sizningcha mahoratli pedagog qanday faziliyatlarga ega bo'lishi kerak?
3-guruhga Pedagog qanday kasbiy fazilatlarga ega bo'lishi kerak?	4-guruhga Mahoratli pedagog bo'lishi uchun yana nimalarga ega bo'lishi kerak?

2-topshiriq

Har bir guruh o'ziga berilgan topshiriq'ini aytilgan vaqt oraliq'ida taqdimot loyihasini tayyorlaydi.

1-slayd

2-slayd

3-slayd

4-slayd

Berilgan vaqt tugagach, guruhlar o'z loyihalarini himoya qiladilar, kamchiliklar o'qituvchining ko'magi bilan to'ldiriladi.

Yangi mavzuni mustahkamlash:

O'qituvchi yangi mavzuni mustahkamlash uchun guruhlar taqdimotidan so'ng talabalar diqqatini slaydlar asosida muammoli topshiriqlarni taqdim etadi.

1-mavzu. Pedagogik mahorat haqida tushuncha,

Muammo: Ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda pedagog mahoratining zarurligi.

- ▶ Kichik muammoni o'zining to'liqicha yordam beruvchi muammoli savollari:
- ▶ Nima uchun ta'lim jarayonini va o'qituvchi faoliyatini har tomonlama tahlil qilish hamda baholash zarurligi paydo bo'ldi?
- ▶ Ta'lim va baholashning maqsadi nima?
- ▶ Ta'lim jarayoni va pedagog faoliyatini tahlil qilish tartibini o'ziga berish.

Yechim:

- ▶ Hozirgi sharoitda har bir yoshni o'z kelajagini o'zi qurishga tayyorlashga o'rgatish;
- ▶ -pedagog yoshlarga ta'lim beradigan darajada bilimga ega bo'lishi.
- ▶ 2.zamonaviy yetuk kadrlarni kelajakda bilimli, to'liq fikr yuritadigan, zamonaviy texnikani har tomonlama egallagan shaxslar qilib ishlab chiqarishga tayyorlab berish.
- ▶ 3. pedagog faoliyatini tahlil qilish tartibi:
- ▶ -bilim saviyasi,
- ▶ -kasbiy mahorat,
- ▶ -talabalarni tushunish,
- ▶ -auditoriyaning ushlay bilish,
- ▶ -odilona baholash
- ▶ -har kungi yangiliklardan xabardor bo'lish

3-rasm: Muammoli topshiriqlarni bajarish

2-jadval: Muammoli ta'lim usuli: Muammoni ishlab chiqish kichik muammolar va xulosalar, qaror qabul qilish

Muammo: Ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda pedagog mahoratning zarurligi.	
Birinchi kichik muammo: Ta'lim jarayoni va pedagog faoliyatini har tomonlama tahlil qilish va baholash zarurligi	
Kichik muammoni yechimini topishda yordam beruvchi muammoli savollar: (1) Nima uchun ta'lim jarayonini va pedagog faoliyatini har tomonlama tahlil qilish hamda baholash zarurligi paydo bo'ldi?	Yechim: 1.hozirgi sharoitda har bir yoshni o'z kelajagini o'zi qurishga tayyorlashga o'rgatish; -pedagog yoshlarga ta'lim beradigan darajada bilimga ega bo'lishi. 2.zamonaviy yetuk kadrlarni kelajakda bilimli, to'liq fikr yuritadigan,zamonaviy texnikani har tomonlama egallagan shaxslar qilib ishlab chiqarishga tayyorlab berish. 3. pedagog faoliyatini tahlil qilish tartibi: -bilim saviyasi, -kasbiy mahorat, -talabalarni tushunish, -auditoriyaning ushlay bilish, -odilona baholash -har kungi yangiliklardan xabardor bo'lish
Xulosa:	
Umumiy yakuniy xulosa	



3-jadval: Testlar materiali

Savollar	Javoblar
O'qituvchini atamasiga berilgan ta'rifning qaysi biri mukammal?	+o'qituvchi-murabbiy,ustoz - o'qituvchi -inson qalbining muhandisi - o'qituvchi-yoshlarga ta'lim-tarbiya beruvchi kishi - o'qituvchi – ziyo nurini tarqatuvchi shaxs
Pedagogik texnologiyaning asosiy vazifasi nima?	-o'quv jarayonini mazmunli rivojlantirish + o'quv jarayonini mazmunli amalga oshirish va rivojlantirish - o'quv jarayonini vaqt doirasida olib borish - o'quv jarayonini mazmunli amalga oshirish
Axborot texnologiya nima?	+ pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismi -nazorat turi (joriy,oraliq,yakuniy) -o'zaro ta'sirlar -pedagogikada monitoring
An'anaviy yondashuvning asosiy xususiyati nimada?	-ijodiy yondashuv -nazorat turi (joriy,oraliq,yakuniy) + gapirib berish, tushuntirish,talaba esa bu axborotni xotirada saqlaydi.
Pedagogik tizim nimalardan iborat?	+ pedagogik jarayonning ob'ektlari va sub'ektlari ,shakl-usullari,ular o'rtasidagi munosabatlar,o'zaro ta'sirlar hamda ularni boshqarish -talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish -gaplarni yozib,saqlab olish,ijodiy yondashuv
Ta'lim jarayoni nimalardan iborat?	-harakatlarni tekshirish -xatoni tuzatish,baholash -maqsad,xatoni tuzatish + maqsad nazorat,baholash,natija,ta'lim metodlari

Shundan so'ng testning to'g'ri javoblari (qog'oz variantda yoki katta ekranda) e'lon qilinadi. Talabalar o'zlarining javoblarini tekshiradi va o'zini o'zi baholaydi.

Savollar jadvali, testlar yoki tarqatma materiallarning to'g'ri javoblari jadvalda keltiriladi.

4-jadval: To'g'ri javoblar

1	2	3	4	5	6
A	B	A	D	A	S

Tayanch so'zlar: mahorat, pedagogik mahorat, qobiliyat, pedagogik muloqot, pedagogik takt, kommunikativlik, kreativlik, kompetentlik. Talabalarni rag'batlantirish baholash orqali amalga oshiriladi. Baholashda quyidagilarga e'tibor beriladi: talabani fikrlay olish qobiliyati; o'z fikrini erkin bayon eta olishi; ta'lim oluvchining muammoli vaziyatlarni muhokama qila olishi. O'qituvchi talabalarga o'zini o'zi baholash bo'yicha topshiriqlar tavsiya etishi mumkin.

O'zini o'zi baholash mezonlari:

- Mavzu haqidagi tushunchaga ega bo'lish – 2 ball.
- Mavzuda keltirilgan g'oyalardan foydalana olish – 2 ball.
- Mavzu yuzasidan muammoli topshiriq yarata olish – 2 ball.
- Mavzu g'oyasining hozirgi kundagi dolzarbligini asoslash – 3 ball.
- Mavzuning maqsadi va vazifalarini bayon qilish – 1 ball.

9–10 ball uchun 5 baho, 7–8 ball uchun 4 baho, 5–6 ball uchun 3 baho, 5 balldan kam to'plangan natija uchun esa 2 baho qo'yiladi.

Uyga vazifa: o'qituvchilik kasbiga doir materiallar bilan tanishib chiqish hamda pedagogik mahorati yuqori bo'lgan ustozlarning video va audio mashg'ulotlarini tinglab, ular asosida insho yozib kelish. Pedagogik texnologiya doirasida mashg'ulot ishlanmalari, texnologiya va metodlar, vositalar oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va o'qitishni tashkil etish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bunda malakali pedagog o'z ishiga ijodiy yondashishi hamda o'z erkinligiga ega bo'lgan holda mashg'ulotda qo'llaniladigan turli usul va uslublar, mashg'ulotni tashkil etish shakllari va vositalarini mustaqil belgilashi muhimdir. Shundan kelib chiqib, ushbu bob bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi:



- oliy ta'lim muassasalarida o'qitilayotgan umumiy pedagogika va psixologiya o'quv faniga oid mashg'ulotlar modeli takomillashtirildi;
- ushbu model asosida mashg'ulot jarayonini loyihalashtirishda modelning har bir komponentiga alohida e'tibor qaratildi;
- oliy ta'lim muassasalarida umumiy pedagogika va psixologiya fanini o'qitish hamda ta'lim amaliyotiga joriy etish metodikasi ishlab chiqildi;
- interfaol usullar orqali ta'lim samaradorligi oshadi, o'qituvchi va talaba o'rtasida o'zaro hamkorlik kuchayadi, talabalarda erkin fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi va shakllanadi, natijada talaba shaxsi ta'lim jarayonida markaziy figuraga aylanadi;
- bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini mediata'lim resurslari vositasida shakllantirishda multimedia vositalaridan unumli foydalanish ularning metodik tayyorgarligini takomillashtirib, ta'lim samaradorligini oshiradi.

XULOSA

Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini mediata'lim resurslari orqali rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biridir. Mediata'lim resurslari o'qituvchilarga ta'lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli tashkil etish imkonini beradi. Ular interaktiv materiallar, video darslar, onlayn platformalar va boshqa ko'plab vositalarni o'z ichiga oladi, bu esa o'qituvchilarning pedagogik ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. T.: 28.01.2022-yildagi PF-60-son. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. Yoqubaliyeva D. P. Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini "Tarbiya" fanini o'qitishga tayyorlashning samarali tamoyillari va omillari. *Ekonomika i sotsium jurnali*, 2025-yil.
3. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 6-jild. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2003. B. 704.
4. Begimqulov U. Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. Pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi. T.: 2007-yil. B. 305.
5. Omonov H. T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T.: Iqtisod-moliya, 2009-yil. 240 b.
6. Xozyainov G. I. O'qituvchi faoliyatining pedagogik tuzilishi va o'quv jarayonida o'qituvchi mahoratini shakllantirish. Pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi. M.: 1991-yil. 39 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.